

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“KASB MADANIYATI VA ETIKASI ”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2024

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan **pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan** pedagogik qayta tayyorlash 4 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: BuxDU pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
H.B.Ismatova.

Taqrizchilar: BuxDU pedagogika professori p.f.d. **N.N.Musayeva**,
BuxMTI professori, p.f.d. **Sh.X.Samiyeva**

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I	ISHCHI DASTUR
II	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI
III	NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
IV	AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
V	GLOSSARIY
VI	ADABIYOTLAR RO‘YXATI
VII	NAZORAT SAVOLLARI

ISHCHI DASTUR KIRISH

Ushbu o'quv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta'limda pedagogik innovatsiya, ta'lim jarayonida innovatsion talablarni joriy etish, akademik litseylar pedagoglarida kreativlik sifatlari va malakalari, o'qituvchi kreativligini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalar, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion yondashuv, ta'limda innovatsion mobillik, pedagogik dizayn asoslarini o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning Pedagogik texnologiya va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

"Uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalar" qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslarining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarida ta'limda innovatsion yondashuvlar va integratsiyaning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: liy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarini uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish.

Modulning vazifalari:

Tinglovchilarni ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan tanishtiribgina qolmay, ularni o'quvchilar ongiga singdirish va amaliyotda foydalanish metodlari, texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, innovatsion texnologiyalar asosida milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish hamda uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalar fanini nazariy va amaliy jihatdan ma'ruza, seminar mashg'ulotlari jarayonida

chuqur yetkazish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablar. Tinglovchi:

Ta'limi tizimi mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash ta'lim jarayonining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi hamda ularda ta'lim jarayonini tashkil etishni, uning mazmunini, metodik ta'minlashni, sifat va samaradorligini oshirishni takomillashtirishga doir talablar qo'yiladi.

Qayta tayyorlash oliy ta'lim professor-o'qituvchilari tayyorgarligining zarur hamda yetarli darajasi, ulardagi bilim va amaliy mahoratning mazkur kadrlarga yetkazishni nazarda tutadi.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Tanlov o'quv modullari nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg'ulotlarda uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalarga oid ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlarining huquqiy-me'yoriy asoslari", "Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat" va "Umumiy pedagogika", "Umumiy psixologiya" modullari bilan uzviy bog'langan holda bo'lg'usi tarbiyachilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini shakllantirish va orttirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Modul Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy asoslari, Umumkasbiy tayyorgarlik modullaridan keyin turadi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar nazarda tutiladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Tinglovchilarni davlat talablari asosida, jamiyatda o'qituvchining ijtimoiy mavqeyi, kasbiy madaniyati va etikasi, pedagogik odobi haqida tarixiy tajribalarga tayangan holda ma'lumot berish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

“Kasb madaniyati va etikasi” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Hammasi	Jami o‘quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta’lim
				Nazariy	Amaliy	Semenar	
1	Kasb madaniyati va etikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	2			
2	Muomala madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari.	2	2	2			
3.	Qadimgi dunyo allomalarining axloqiy etik merosi.	2	2	2			
4.	Kasbiy soha xodimlari nutq ododbi qoidalari.	2	2		2		
5.	Pedagogning kasbiy madaniyatini oshirish funksiyalari.	2	2		2		
6.	Kasbiy pedagogik madaniyat darajalarining xususiyatlari	2	2			2	
		12	12	6	4	2	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU:Kasb madaniyati va etikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

(2soat)

Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
Pedagoglik kasbi madaniyati va etikasi fanining mohiyati, maqsad va vazifalari.

2-mavzu: Muomala
madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari.

(2 soat)

Muomala madaniyati, asosiy kategoriyalari, ustuvor tamoyillari.
Pedagogik qoidalari.

3mavzu:Qadimgi dunyo allomalarining axloqiy etik merosi.

(2soat)

Dunyo xalqlaring etik merosi, buyuk allomalarimizning pedagogik qarashlarini o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy va seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 4.Kasbiy soha xodimlari nutq ododbi qoidalari.
- 5.Pedagogning kasbiy madaniyatini oshirish funktsiyalari.
6. Kasbiy pedagogik madaniyat darajalarining xususiyatlari

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- bahs va munozaralar (topshiriqlar yechimi bo'yicha dalillar va asosli ma'lumotlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Maruza matnlari

1-mavzu. Kasb madaniyati va etikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Kasb madaniyati va etikasi — bu kasbga oid masalalar, muomala madaniyati, kasb sohasida insonning mas'uliyatli yondashuvi va etik tamoyillarini o'rganuvchi fan bo'lib, uning asosiy maqsadi — kasbga oid so'zlashuv, munosabatlar, qarorlar va amaliyotlarda to'g'ri etik va madaniy me'yorlarni rivojlantirishdir.

Kasb madaniyati va etikasi fanining predmeti

Kasb madaniyati va etikasi fani kasb faoliyatida yuzaga keladigan axloqiy masalalar, huquqiy me'yorlar va shaxsiy qarorlar asosida to'g'ri xulq-atvorni shakllantirishni o'rganadi. Bu fan kasbni egallashdan boshlab, uning amaliyotida yuzaga keladigan etik va madaniy muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi.

Kasb madaniyati va etikasi fanining maqsadi

Kasb madaniyati va etikasi fanining maqsadi — kasb egalarining o'z vazifalarini axloqiy jihatdan to'g'ri va madaniy tarzda bajarishiga ko'maklashish, shuningdek, ishdagi etik va madaniy muammolarni hal qilishda amaliy yordam berishdir. Fanning asosiy maqsadi kasbga oid o'zaro munosabatlarda etika, huquq, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va bu orqali kasb sohasida barqaror va samarali faoliyatni ta'minlashdir.

Kasb madaniyati va etikasi fanining vazifalari

1. **Kasb etikasi va madaniyatini o'rgatish:** Kasb etikasi va madaniyati haqida bilimlarni oshirish, xususan, kasbda yuzaga keladigan etik muammolarni hal qilish usullarini o'rgatish.

2. **Kasbda axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatish:** Kasbda qabul qilinishi kerak bo'lgan axloqiy qarorlarni tahlil qilish va ularning to'g'ri amalga oshirilishi uchun yo'llarni aniqlash.

3. **Kasbga oid ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish:** Kasb egalarini o'z kasblarida ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvni o'rgatish, shu bilan birga ularning jamiyat oldidagi o'rni va roli haqida xabardor qilish.

4. **Kasb madaniyati asoslarini yaratish:** Har bir kasbga xos madaniyatni rivojlantirish, o'zaro munosabatlarda madaniyatli va hurmatli bo'lishni shakllantirish.

5. **Professional xulq-atvorni rivojlantirish:** Kasbga oid muomala va xulq-atvor madaniyatini rivojlantirish, shu bilan birga professional xulq-atvorni takomillashtirish.

Kasb madaniyati va etikasi fanining ahamiyati

Kasb madaniyati va etikasi har qanday kasb egasi uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbda yuqori axloqiy me'yorlar va madaniyatga rioya qilish ish muhitini yaxshilash, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va kasb sohasida ishonchni oshirishga yordam beradi.

Bu fan, shuningdek, kasb sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda to'g'ri axloqiy yondashuvlarni shakllantirish orqali, jamiyatda yuqori malakali, mas'uliyatli va madaniyatli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan insongina jamiyat muammolarini aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi. Chunki inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida kamolotga erishadi. Zotan, inson jamiyatda yashar ekan, undan chetda turolmaydi. Insonlarga xos bo'lgan axloq me'yorlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning hatti-harakatlarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviyat bilan bog'lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishi umume'tirof etilgan tamoyillar, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda demokratik standartlar asosida huquqiy davlat qurishni belgilab oldi.

Huquqiy davlatning shakllanishi va jamiyat ishlari boshqaruvining takomillashuvi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik kuchayib borayotgan hamda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizdagi muhim vazifaga aylanib borayotgan hozirgi paytda davlat boshqaruvi qat'iy qonunlar asosida amalga oshirishni taqazo etmoqda. Bu esa bevosita davlat xizmatchidagi xodimdan yuksak fazilatlarini o'zlashtirishni talab qiladi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarini shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Professional etika ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb - hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa har bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va mahiyat quvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o'ziga xos ko'nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi.

Professional etika tushunchasi va ahamiyati. Xalqimiz farovonligi maqsadida davlatchilik va qonunchilik yanada rivojlanib borayotgan bir paytda «Professional etika» fanining o'qitilishi zarurligini isbotlab o'tirishning o'zi ortiqchadir. Ya'ni kasb madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to'liq qaytarib olish mahorati barcha kasb egalarining orzusi bo'lmog'i lozim. Bu shubhasiz, bundan tashqari, hozirgi kunda professional etika muammosini kun tartibiga hayotning o'zi qo'ymoqdaki, kishilik jamiyatining madaniy-ma'rifiyligini

busiz tasavur qilish qiyin. Shu sababli kasb madaniyati, qonuniy «kasb ehtiyoji» hayotiy talabga aylanishi aniq.

Har bir fanning o'zining predmeti boigani kabi professional etika fanining ham o'z predmeti mavjuddir. Professional etika fanini axloq tashkil qiladi. Etika axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyatda tutgan o'mi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi va haqiqatini amalda isbotlagan olimlar majmuidan iboratdir. Axloq aslida, lotincha "maralis" so'zidan kelib chiqib axloqli degan ma'noni bildiradi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil yetishda, ularning ijtimoiy - siyosiy va huquqiy faoliyatda, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq atvori, yurish - turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi munosabatlarining majmuiga aytiladi. Shunday kelib chiqqan holda, jamiyatning ko'p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi "axloq" tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'yektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayotiga faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir.

Axloq ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat jamiyat vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat tariqasida vujudga kelgan. U o'zining tarixiy taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajargan:

- umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o'zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;
- kishilarning ichki tuyg'ularini, hissiyotlarini takomillashtirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarini anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo'li dan eng afzali;
- axloqshunoslik - insonlarga axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, tahlil etadi.¹

Ma'naviyatni harakatga keltiruvchi kuch, ularning ijodkori *shaxs ma'naviyati* hisoblanadi. Shaxs ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa, umuminsoniy va milliy ma'naviyat ham shunchalik umrboqiy bo'ladi. Shaxs ma'naviyati - har bir kishining o'zini insoniyat farzandi, muayyan *millat vakili, davlat fuqarosi* deb bilgan holda o'z vatani tuprog'ini, suvini, havosini va jamiki boyliklarini ko'z qorachig'iday asrashlari, uning ozodligi-obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo'yish yo'lida chin vijdon, imon, e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuiga aytiladi.

Shunday qilib, shaxs ma'naviyati: *birinchidan*, hissiy va aqliy jihatdan o'zining kimligini, ya'ni o'zligini anglash, aniqlash, qaysi odamning, millatning, Vatanning farzandi ekanligini idrok yetish; *ikkinchidan*, o'zi mansub bo'lgan oila, millat, Vatan bilan faxrlanish, g'ururlanish; *uchinchidan*, oilasi, millati, Vatanining

ravnaqi yoiida ilm olish, tarbiya topish hamda unga sadoqat, imon-e'tiqod bilan xizmat qilish; *to'rtinchidan*, har qanday insonning haq-huquqlarini hurmatlash; beshinchidan, ilm- fanni insoniyat rivojini ta'minlovchi, jafokash mehnat ahlining og'irini yengil qiluvchi vosita deb bilish, shuningdek, ajdodlar xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirish kabi bir qator ichki ruhiy va aqliy his-tuyg'ular, qarashlar, teran bilimlar va hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxs awalo inson, odam bolasi sifatida eng oliy qadriyat hisoblanadi. Uning ma'naviy kamoloti hozirgi kunda ko'p jihatdan umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlarining ta'siriga, aks ta'siriga bog'liq.

Axloq va axloqiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo'lmay, balki xalq hayotining hamma jabhalariga kirib boradi. Axloqiy xislatlar sohasi ko'plab masalalami, ya'ni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy qarashlariga bo'lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, shaxsiy xulq-atvorgacha bo'lgan masalalami o'z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma'lumki, insonning botiniy go'zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog'liq holda namoyon boiadi. Chunki axloq, awalo, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik E.Yusupov: «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o'z munosabatini bildirishi hamdir,- deydi. - Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bodgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatda ularga xos boigan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bodishidir. Axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloq zaminidagina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati, baxt, diyonat, yaxshilik va yomonlik, yovuzlik, haqlilik va nohaqlikka nisbatan muayyan munosabat shakllanadi»².

2-Mavzu: MUOMALA MADANIYATI, UNING ASOSIY SHAKL VA QOIDALARI.

MUOMALA MADANIYATI

Muomala madaniyati — jamoat joylarida kishilar bilan muomala qila bilish madaniyati biz aytgan odob-axloq tamoyilining uzviy bir bo'lagidir. Buni tasavvur qilish uchun, albatta zamonaviy axloq talablarini har tomonlama o'rganib chiqish talab etiladi. Darslik o'quv qo'llanmalarida «nutqiy madaniyat», «nonutqiy madaniyat» degan atamalarga tez-tez duch kelamiz. Bu bejiz emas, albatta. Ko'p hollarda kishilar nutqiga, ya'ni gap-so'ziga qarab baholanadi. Nutq esa og'zaki, yoxud yozma tarzda bo'lishi mumkin. Nutq madaniyatini barcha sohalarda bo'lganidek, harbiy sohada ham shakllantirish, oson kechmaydi. Hatto boshliqqa hisobot berish, yig'inda so'zlash, ma'ruzalar qilish kabi kundalik yumushlarning ham o'ziga xos o'z talab-qoidalarini bor. Shuningdek, xizmat qaydnomasini yurgazish, hisobot, bildirgi, yozma axborot va shu singari xizmat yozishmalarini idora madaniyatiga mos ravishda yurgazishga asoslangan talablar qoidalar mavjud.

Muloqot — harakat, tuyg'u, fikr-mulohaza, ichki kechinmalarni o'zgalar bilan o'rtoqlashish demakdir. U shaxs fazilatlarini, ichki «men»ining eng yaxshi qirralarini namoyon qiluvchi ijod shaklidir. Muloqot esa etiket asosini tashkil etadi.

Buning hammasini bir so'z bilan «**nutqiy madaniyat**» deb atashimiz mumkin. Bu muomala madaniyatining yorqin bir tomoni. Ma'lum bir vaziyatda zaruriy so'z va iboralarni topib gapirish, ovoz ohangiga, baland yo pastligiga e'tibor berish shaxsning madaniyat darajasini nechog'lik ekanini ko'rsatadi. Biz yuqorida «**nonutqiy**» **madaniyatni** ham tilga olib o'tdik. Chunki harbiy xizmatchi uchun nonutqiy madaniyat, ya'ni chiroyli hatti-harakat, imo-ishora, yoxud ko'z qarashi bilan fikrini ifodalash g'oyat muhimdir. Saf Nizomida harbiy hizmatchining nonutqiy madaniyat talab-qoidalarini aniq-tiniq ifodalanganki, bu har bir xarbiy xizmatchi uchun dasturulamal deb, bemalol aytishimiz mumkin. **Xushmuomalalik, uddaburonlik, kamtarlikva qat'iyatlilik** kabi xislatlar ham muomala madaniyatining yorqin qirralaridandir. Bular ichidaxushmuomalalik butun axloq qoidalarining negizi sifatida ajralib turadi. Uddaburonlik esa muayyan vaziyat sharoitiga tez moslashib, zaruriy holatlarga kirishdir. Harbiy hizmatchi buni g'oyat noziklik bilan o'zlashtirishi va amalda qo'llay bilishi shart. Shu bilan bir qatorda u kishilar diqqat-e'tiboriga atay tushishdan qochishi, manmanlikka yo'l qo'ymasligi lozim. Bu narsa kamtarlik deb ataladi. **Qat'iyatlilik** — asosan harbiylarga xos xislat bo'lib, ishda va so'zda bir so'zlilikka amal qilish, qat'iyatli va sobit turish demakdir. Biz yuqorida tilga olgan xislatlar jamlanmasi harbiy hizmatchining **muomala madaniyatini** tashkil etadi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya axloq qoidalariga ma'lum bir talab va tartiblarni qo'yganki, bularni o'zlashtirish har bir madaniyatli kishi uchun ham farz ham qarzdur. Insonparvarlik, erkinlik, o'zaro hamjixatlik, xayrixohlik shular jumlasidandir. Axloqning bunday me'yor va talablari insoniyat hayotining barcha qatlamlariga tezkorlik bilan singib bormoqda. Gar shunday ekan, harbiy hizmatchi

ham o'z faoliyati davomida o'qib-o'rganishi, hayoti davomida ularni to'la o'zlashtirgan bo'lishi va amal qilishi shart.

MUOMALA MADANIYATI, TANISHISH VA TANISHTIRISH ETIKETI. MUOMALADA YUZAGA KELADIGAN ZIDDIYATLAR VA ULARNI BARTARAF YETISH YO'LLARI

Donishmandlarning "Yuziga boqma, so'ziga boq" - degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til - inson tafakkuri mahsuli U inson madaniyati fikriy go'zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir - biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta - kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. bisonning go'zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'mini topa olishida, boshqalarning hurmat extiromiga erishishda muomalaning o'mi kattadir. bisonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi. Go'zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so'z, qo'pol muomala inson qalbini larzaga soladi. Shirin muomalada bo'tish ham katta san'at. Shirin so'z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So'z, yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi.

Insonning boshqa inson bilan muloqotiga qarab, uning axloqiga ham baho beriladi. So'z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu-nasabi, ota-onasi va ustozining bergan ta'tirn tarbiyasi namoyon bo'ladi. Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his-tuyg'ulari uning tashqi qiyofasi - ko'zlari, chehrasi, shuningdek qaddi-qomati va yurish-turishida to'la aks etadi. bisonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo'lsa, yurish-turishi ham shunchalik madaniyatli bo'ladi.

Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham suyakni tebratadi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon yetishi, ko'zga ko'tarishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Ayniqsa, bu axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uni ko'proq namoyon qiladigan eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobidir. Bu borada mutasawif olimlarimizdan Imom G'azzoliy bir qancha o'rinli fikrlarni bildiradilar: «Hazrati Rasul alayhissalom aytibdurlar: «Haq subhonahu va taolo ochiq yuzlilarni do'st tutar». Va yana aytibdurlar: «Hech bir yaxshi amal yo'qki, maxfiyatga sabab bo'lmoqqa ochiq chehralik va shirin zabonlikdan ziyoda»¹⁰.

Uning fikricha shirinsuxanlik va bosiqlik odobli insonni odobsizdan ajratuvchi **me'yordir**. Zero, odobsizlik badxulqlikka, badxulqlik axloqsizlikka olib keladi. Yomon insonlarning yomonligi aynan muomaladan kelib chiqadi. Ya'ni yomonga yomonlik bilan qilingan muomala vaqtincha bo'lsa ham o'sha yomonning yo'lida yurishga chorlaydi.

“Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta’sir o‘tkazadilar va ta’sirlanadilar” ¹¹

Etiket kengqamrovli tushuncha bo‘lib, u ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Ulardan bizga odat bo‘lib qolgan ko‘rishish etiketidir.

Salom berish kundalik hayotimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan odat bo‘lib, xushmuomalalikni talab qiladi. Salomlashish kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, muomala munosabatlarining awal boshi bo‘lgani uchun uning bajarilishini ham alohida qoidalar bor. Salomlashganda aytiladigan so‘zlarga «*Assalomu aleykum*», «*salomatmisiz*», «*omonmisiz*», «*yaxshimisiz*», «*salomat bo‘ling*» deyiladi. Bu so‘zlarda, insonlarning bir-biriga hurmat ehtiromi, xayriholik izhori bilan birga chuqur mazmun va mulohaza bor. Kundalik hayotimizda ishlatib turadigan “*marhamat qiling*”, “*baraka toping*”, “*rahmat*”, “*behad minnatdorman*”, “*uzr*”, “*avf etasiz*”, “*kechiring*” va shu kabi tushunchalar borki, ularning barchasi mulozamatni, insonlarga bo‘lgan kamoli ehtiromni bildiradi. Shunga e’tibor berish kerakki, insonga **qo‘yadigan** talab bilan unga ko‘rsatilayotgan iltifot bir-biri bilan bevosita bog‘lanib ketganligidan ular orasiga chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, birovning eshigini taqqillatib ruxsat so‘rab kirish, boshqa insonni noqulay vaziyatga solib qo‘yishni oldini oladi.

Salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala munosabatlarini boshlanishi, bir-biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kalitidir. Salom berilganda sizga yoqimsiz qarab turgan inson ham alik oladi. Qoi berib kohishayotgan vaqtda bir-birlarini qo‘llarini qattiq siqib, qoiini og‘ritib yoki qoiini uchinigina berib qo‘yish o‘ta odobsizlikka kiradi. Yoshlar o‘zidan katta odamlar bilan ko‘rishganlarida, albatta ikki qo‘lini berib ko‘rishadilar. Ayniqsa, yosh bolalarning katta yoshdagilarga qo‘lini uzatib ko‘rishishlari ham odobsizlik sanaladi. Kim birinchi bo‘lib so‘rashishi lozim? Buning ham etiketda o‘ziga yarasha qoidalari mavjud:

- yoshi kichiklar yoshi kattalarga;
- erkaklar ayollarga;
- xonaga kirgan inson u yerdagi barchaga umumiy;
- zinadan chiqayotgan inson yuqori pag‘onadagi 1 arga;
- agar ikki oila uchrashib qolsa, ayollar birinchi bo‘lib so‘lashishlari keyin esa erkaklar so‘rashishlari lozim;
- qanday jamoat joylarida fikr bildirilishidan qat’iy nazar, salomdan boshlash kerak;
- yoshi va xizmat pog‘onasi teng insonlar uchrashib qolganlarida birinchi bo‘lib tarbiyali inson so‘rashadi;
- uyga kelgan mehmon eshikni ochgan insonga salom berishi, keyin uyning kattalari va boshqa mehmonlar bilan so‘lashishi kerak;
- uy egalari hamma o‘tirganlar bilan bir xil so‘lashishlari lozim. Ulardan kimgadir alohida munosabat bilan so‘lashish odobsizlik hisoblanadi.

3-mavzu. Qadimgi dunyo allomalarining axloqiy etik merosi.

Reja:

1. *Avesto- qadimgi dunyoning ahloqiy qomusi*
2. *Qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari*
3. *Qadimgi Rimda ahloqiy ta'limotlar*

1. Insoniyat ma'naviy olamining tarkibiy qismi bo'lgan Zardushtizm dini qadimiy ilohiy ta'limot bo'lib, tabiat, jamiyat inson taqdiri va orzu- intilishlarini ifodalovchi bebaho hazinadir. Ayni holda insonlarga haqiqiy odil yo'lni ko'rsatuvchi uni yaratgan ilohiy qudratga ishonchni uy'otuvchi, imon - e'tiqodni mustahkamlovchi ta'limotlar majmuasidir.

Tarihchi olimlarning qayd etishicha zardushtizm dini eramizdan avvalgi 7-8 asrlarda O'rta Osiyoda maydonga kelgan. Bu din asoschisi Spitaman Zardusht eramizdan avvalgi 570 yilda tu'ilgan. U o'z davrining mashhur ilohiyotchisi, faylasufi, shoiri hisoblangan.

Avestoda Spitaman Zardusht tu'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan mamlakat haqida ham quyidagi so'zlar uchraydi. "Shunday mamlakatni, ko'p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland to'lar bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, chuqur, suvga mo'l ko'llari bor, keng qir'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruga, Mouru (Marv), Hareva (Ariya) Bava (Su'd hududida), Huvayrizima (Horazm) mamlakatlari tomon elituvchi daryolari bor".

Darhaqiqat, "Avesto"da tasvirlangan shaharlar O'rta Osiyodagi Amu va Sirdaryo orali'ida joylashganligi aniq ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan zardushtiylikning kelib chiqishi va tarqalishi Horazm, So'd, Far'ona, Baqtriyadir deb ayta olamiz.

Avestoning "Yasht" qismida bayon qilingan fikrlarga ko'ra Zardushtning diniy ta'limotini yurtdoshlari qabul qilmay, unga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladilar. Oqibatda u Vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi. Shu davlat shohi Vishtaspa va malika Hutosa Zardusht ta'limotini qo'llab - quvvatlaydilar. Asta- sekin bu ta'limot qo'shni yurtlarga ham tarqaladi.

Shoh Vishtaspa farmoniga ko'ra "Avesto"ning qadimiy 1200 bobdan iborat "Gotni" pandnomasi yozma ravishda shohning otashkadasiga topshirilgan.

Avestoda birinchi bor muqaddas olov "Atarhurra" Ayrian Vodjada yoqildi deyiladi. "Ayrian vodja" geografik va iqlimiy tavsifi Horazmnikiga mosdir. So'ngra "odamlar va chorva mollarga mo'l" So'd (Su'd) "Qudratli va muqaddas" Mouru Marv, "Baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati" Bahti (Baqtriya) tilga olingan.

Tarihdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olgan davrda juda ko'p moddiy va ma'naviy boyliklar qatori "Avesto" kitobini ham yondirib yo'q qilib yuborgan. Ruhoniylar qatl etilgan. Abu Rayhon Beruniy ana shu voqealarni tasdiqlovchisi quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Podsho Doro Ibn Doro hazinasida Avestoning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir

nushasi bor edi. Iskandar otashhonalarni vayron qilib, bularda hizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuboradi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Avesto o'ttiz "nask"edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizdek, nask Avesto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir"1.

Eramizning VIII- asridagi arab bosqini davrida ham juda ko'p tarihiy, badiiy, diniy adabiyotlar qatorida "Avesto" kitoblari ham yoqib yuborilgan. Halqimiz ma'naviy merosining noyob hazinasi bo'lgan "Avesto" keyingi asrlardagi pahlaviy, fors tillaridagi talqin asosida bizgacha etib kelgan.

Eng qadimgi jahon dinlaridan biri hisoblanuvchi zardushtizm eramizdan avvalgi VII-VIII asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon, Hindiston, Kichik Osiyo halqlarining asosiy dini hisoblangan. Eronda rasmiy davlat diniga aylangan. Arab istilosigacha O'rta Osiyoda ham asosiy din sanalgan. Hozirgi kunda Zardushtizmga e'tiqod qiluvchilar Hindistonning Bombay, Gujarot shtatlarida, Eronning ba'zi chekka viloyatlarida uchraydi. "Avesto" ning to'ldirilgan nushalari Bombay, Kalukuta shahar kutubhonalarida mavjud.

